YASHIL PROTEKSIONIZM: GLOBAL IQLIM SIYOSATI VA XALQARO SAVDO URUSHLARINING YANGI DAVRI

Nortojiyeva Sevinch Raximjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

sevinchnortojiyeva31@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20520804

Annotatsiya: Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi dolzarb mavzuga aylanishi oqibatida, rivojlangan mamlakatlar atrof-muhitni muhofaza qilish niqobi ostida kuchli iqtisodiy cheklovlarni joriy qilmoqda. An’anaviy ta’rif tizimlarini egallab borayotgan yashil proteksionizm siyosati mexanizmlari, shu jumladan Yevropa Ittifoqining uglerod chegaralarini moslashtirish mexanizmi va AQShning erkin subsidiyalash siyosati erkin savdo tamoyillarini inqirozga uchratmoqda. Ushbu hodisa xalqaro savdo aloqalarida geosiyosiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarayotgani sababli chuqur ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi qo‘llanilayotgan proteksionestik chora-tadbirlarning savdo tizimi, ta’minot zanjiri hamda rivojlanayotgan mamlakatlar eksportiga ko‘rsatayotgan ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari asosida tegishli xulosalar chiqariladi va undan tashqi iqtisodiy siyosat yuritish strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: yashil proteksionizm, iqlim siyosati, CBAM, AQSh, Yevropa ittifoqi, Xitoy, boj to‘lovlari, tariflar, uglerod, export, import, rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgn mamlakatlar

Abstract: Today, as global climate change becomes a pressing issue, developed counties are imposing stringent economic restrictions under the guise of environmental protection. The mechanisms of green protectionism, which are overtaking traditional tariff systems—including the European Union's Carbon Border Adjustment Mechanism (CBAM) and the United States' loose subsidy policies—are undermining the principles of free trade. As this phenomenon generates geopolitical and economic challenges in international trade relations, it demands in-depth academic research. The purpose of this study is to analyze both the positive and negative impacts of these implemented protectionist measures on the trading system, supply chains, and the exports of developing countries. Based on the research findings, relevant conclusions are drawn, which can be utilized in formulating foreign economic policy strategies**.**

Keywords: green protectionism, climate policy, CBAM (Carbon Border Adjustment Mechanism), USA, European Union, China, customs duties, tariffs, carbon, export, import, developed countries, developing countries.

Аннотация: Сегодня, на фоне того как глобальное изменение климата становится одной из наиболее актуальных тем, развитые страны вводят жесткие экономические ограничения под прикрытием защиты окружающей среды. Механизмы политики «зеленого» протекционизма, вытесняющие традиционные тарифные системы, включая Механизм пограничной углеродной корректировки Европейского союза (CBAM) и политику свободного субсидирования США, подрывают принципы свободной торговли. Поскольку данное явление порождает геополитические и экономические проблемы в международных торговых отношениях, оно требует глубоких научных исследований. Цель данного исследования заключается в анализе положительных и отрицательных сторон влияния применяемых протекционистских мер на торговую систему, цепочки поставок и экспорт развивающихся стран. На основе результатов исследования формулируются соответствующие выводы, которые могут быть использованы при разработке стратегий внешнеэкономической политики.

Ключевые слова: зеленый протекционизм, климатическая политика, CBAM (механизм пограничной углеродной корректировки), США, Европейский союз, Китай, таможенные пошлины, тарифы, углерод, экспорт, импорт, развитые страны, развивающиеся страны.

Kirish

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligidan boshlab global iqtisodiy aloqalar tizimida tub o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Uzoq vaqt mobaynida davlatlararo xalqaro munosabatlarning asosi bo‘lib kelayotgan xalqaro savdo va globallashuv tamoyillari bugungi kunga kelib bir necha dolzarb muammolarga yuz tutmoqda. Ushbu muammolarning eng asosiy omillaridan biri global iqlim o‘zgarishi muammosiga nisbatan ko‘rilayotgan choralardir. 2015-yilda qabul qilingan Parij bitimi va 2021-yildagi Glazgo iqlim pakti orqali asr o‘rtalarigacha korbanat angidirid chiqindilarini keskin kamaytirish ko‘zlangan. Biroq muammoga yechim sifatida ko‘rilgan ushbu tadbir bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar uchun raqobat ustunligiga erishish vositasiga aylanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar, xususan AQSh, Yevropa Ittifoqi va Xitoy bu strategiyadan xorijiy mamlakat mahsulotlarini kirib kelishiga cheklov qo‘yish maqsadida foydalanishmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda bu tushuncha “yashil proteksionizm” deb nomlanadi.

Yashil proteksionizm – mamlakat o‘z ichki ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida chetdan keladigan import tovarlarga ekologik standartlar qo‘yish va soliq solish siyosati hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning obyekti sifatida xalqaro savdo tizimida qo‘llanilayotgan zamonaviy yashil proteksionizm mexanizmlari o‘rganiladi. Muammoning dolzarbligi shundaki, rivojlangan mamlakatlar yuqori ishlab chiqarish salohiyatiga ega va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish uchun subsidiyalar ajratadi, xorijdan kirib keladigan import tovarlariga esa yuqori darajada ekologik soliqlar belgilaydi. Bu esa mahsulot tannarxi oshishi natijasida, export qiluvchi davlatlar xarajatlarini oshishiga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Uilyam Nordxausning “Iqlim kazinosi: global isish xavfi, iqtisodiyoti va siyosati” asari ekologik iqtisodiyotning yirik nazariy manbasi hisoblanadi. Nordxaus ushbu asarida bozor iqtisodiyoti tabiatga yetkazilgan zararni o‘zi aniqlay olmasligini aytadi va buni mamlakatlar soliq va bojlar orqai amalga oshirishi zarurligini isbotlab beradi.[1]

Dani Rodrikning “Globallashuv paradoksi: erkin bozorlar, davlatlar va global iqtisodiyotning kelajagi” nomli asarida sanoat siyosati va davlat tomonidan ajratilgan subsidiyalarning global savdo tizimiga ta’siri ochib berilgan. Dani Rodrik globallashuv va milliy suverintetni tahlil qilib, iqlimiy maqsadlarni ko‘zlab davlatning iqtisodiyotga aralashuvi natijasida xalqaro savdo urushlari kelib chiqishi mumkinligi haqida aytilgan.[2]

Yashil proteksionizm xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan hujjatlar orqali qonuniyligi baholanadi. Butunjahon savdo tashkilotining ta’sis hujjati hisoblangan “Tariflar va savdo bo‘yicha bosh kelishuv”ning 20-moddasida davlatlarga insoniyot, hayvonlar sog‘ligini saqlash va tabiiy resurslarni muhofaza qilish maqsadida xalqaro savdo cheklovlarini o‘rnatishga ruxsat beriladi.[3]

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasi va uning doirasidagi Parij bitimi iqlim siyosati bo‘yicha asosiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjatga ko‘ra rivojlangan mamlakatlar iqlim o‘zgarishiga ko‘proq javobgar hisoblanadi va ular rivojlanayotgan mamlakatlarga tazyiq o‘tkazmasligi lozimligi belgilab qo‘yilgan. Biroq bugungi kunda ba’zi davlatlar olib borayotgan siyosat bu qonunga zid kelmoqda.[4]

Bundan tashqari Jahon Bankining “Uglerod narxlari tendensiyalari” nomli hisobot-kitobida uglerod soliqlari dunyo bo‘ylab qanday o‘rnatilganligi va uning Yalpi ichki mahsulotga ta’siri aniq raqamlarda keltirilgan.[5]

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda iqlim siyosati doirasida shakllanayotgan yashil proteksionizm fenomenining global savdo munosabatlariga, tarmoqlararo tarif yuklamalariga hamda xalqaro savdo urushlariga ko‘rsatayotgan ta’siri aniq statistic ma’lumotlar asosida miqdoriy-empirik hamda tizimli-funksional,qiyosiy-makroiqtisodiy tahlil metodlari kombinatsiyasidan foydalaniladi. Tizimli-funksional tahlil usuli orqali iqlim siyosati, uglerod va boj soliqlari, shuningdek, xalqaro savdo yaxlit iqtisodiy tizimning bir biriga ta’sir etuvchi elementlari sifatida o‘rganiladi. Tadqiqot davomida quruq sifat tahlilidan qochish uchun xalqaro tahkilotlarning indekslaridan foydalaniladi. AQSh va YI qo‘ygan cheklovlarga Xitoyning javobi natijasida narxlarning oshishi sabab-oqibat aloqadorligi modeli orqali ochib berilgan. Iqlimiy cheklovlar, CBAM mexanizmi asosida belgilanuvchi uglerod bojlariga eng ko‘p ta’sirchanlik ko‘rsatuvchi 10 ta davlat tahlil qilingan. Tadiqotning ishinchliligi va obyektivligini ta’minlash maqsadida xalqaro iqtisodiy institutlarning 2024-2026-yillardagi hisobotlaridan foydalanildi.


Tahlil va natijalar

Bugungi kunda bo‘layotgan asosiy transformatsiya an’anaviy boj tariflarining tarifga kirmaydigan yashirin choralar hisobiga o‘sayotganligidir. Jahon savdo tashkiloti va UNCTAD bergan ma’lumotlarga ko‘ra, ekologik sertifikatlash talablari, mahsulotga qo‘yilayotgan uglerod soliqlari va texnik reglamentlarning o‘rnatilishi import bo‘lib kirayotgan tovarlar narxini sun’iy ravishda oshishi uchun asosiy omillar bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yevropa Ittifoqining CBAM (Carbon Border Adjustment Mechanism) tizimi YIga import qilinayotgan uglerodga boy mahsulotlar uchun olinadigan soliq yoki to‘lov majburiyatidir. Bu tizimning asosiy maqsadi iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va ichki ishlab chiqaruvchilarni chet eldan kelayotgan arzon, biroq ekologik zararli mahsulotlardan himoya qilish hisoblanadi. Bugungi kunda CBAM global savdoning yirik qismini egallamasada, ba’zi davlatlar uchun sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Jahon bankining 2023-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra qiymati 113 milliard AQSh dollarga teng bo‘lgan savdo aylanmasi CBAM ta’siriga uchraydi.

1-diagramma

CBAM umumiy savdo ta’sir indeksi bo‘yicha top-10 davlatlar[1]



Yuqoridagi jadvalda CBAM umumiy savdo ta’sir indeksi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega 10 ta davlat keltirilgan. Bu ko‘rsatkich export qiluvchi davlatlarning Yevropa Ittifoqiga CBAM tizimi orqali uglerod uchun qiladigan to‘lovlari jami eksportning qancha qismini tashkil etishini ko‘rsatadi. CBAM

[1] The World Bank ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

ta’siri eng yuqori bo‘lgan davlat Misr hisoblanadi. Misr uglerod uchun qiladigan to‘lovlari jami CBAM mahsulotlari exportining deyarli 16% i ni tashkil etadi. Misrdan keying o‘rinni, deyarli 14% ko‘rsatkich bilan, O‘zbekiston egallaydi. Misr, O‘zbekiston, Ukraina, Hindiston, Mozambik va Nigeriyadan tashqari boshqa davlatlarda indeks 2% dan oshmaydi. Bu esa ko‘plab davlatlar uchun CBAM tizimi umumiy eksport darajasiga past ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.


Boshqa mamlakatlar ham yashil choralarni qo‘llashni sekin-asta joriy qilishmoqda. Buyuk Britaniya CBAM tizimi 2027-yilda kuchga kirishi va u ham Yevropa Ittifoqiniki kabi tuzilmaga ega bo‘lishi kutilmoqda. Serbiyaning uglerod solig‘i qonunchiligi aluminiy, sement, po‘lat va o‘g‘it kabi mahsulotlarni muvofiqlik chegarasidan yuqori darajada import qiluvchi kompaniyalar uchun shaxsiy BCA mexanizmi bilan birga olib boriladi. Shuningdek, Avstraliya, Kanada hamda Tayvan ham ma’lum turdagi tanlangan tovarlar uchun BCA mexanizmlarini joriy etishni ko‘rib chiqishmoqda.

Amerika Qo‘shma Statlarida ham ortiqcha uglerod hajmini belgilovchi tizimlar belgilangan. AQSh ortiqcha uglerod hajmi uchun Clean Competition Act qonun loyihasidan foydalanadi. Bu loyiha ikki tarmoqqa, ya’ni ichki va tashqi tarmoqlarga bo‘lib amalga oshiriladi. Ichki kompaniylar ham, import qiluvchi kompaniyalar ham belgilangan meyordan oshgan har bir tonna uglerod uchun 60 dollar miqdorda soliq to‘lashadi. Belgilangan o‘rtacha ko‘rsatkichdan kamroq uglerod sarflaydigan korxonalar hech qanday to‘lov to‘lamaydilar.

Bugungi kunda iqlim siyosati global savdo urushlarining an’anaviy shaklini butunlay o‘zgartirib, yangi turdagi “yashil savdo urushlari” keltirib chiqarmoqda. Bu siyosatning asosiy ishtirokchilari AQSH, Yevropa Ittifoqi va Xitoy bo‘lib qolmoqda. AQSh iqlim siyosati niqobi ostida o‘z ichki bozorini chet el raqobatchilaridan himoya qilish maqsadida Xitoydan keladigan ba’zi tovarlarga yuqori boj tariflari joriy qilgan. Masalan, Xitoydan kiradigan avtomobillarga 100%, quyosh panellariga 50% va litiy-ionli akkumulyatorlarga 25% li jazo boj tariflari joriy etilgan. Yevropa Ittifoqi AQSh kabi yuqori boj tariflarini o‘rnatmasada, CBAM mexanizmidan foydalanmoqda. Bularga javoban yashil texnalogiyalar ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchilikka ega bo‘lgan Xitoy yashil sanoat va elektromobillar ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan galliy, germaniy va grafit kabi mahsulotlar exportini cheklab qo‘ydi. Ushbu ta’minot zanjiridagi uzilishlar sababli G‘arb mamlakatlarida yashil akkumulyatorlar ishlab chiqarish tannarxi 15-20% gacha oshdi.

2-diagramma

"Global savdoda amaldagi o‘rtacha boj tarifi"



[2]

[2] Global Trade Update: Top trends redefining global trade in 2026 sayti ma’lumotlari asosida

2025-yilda global tariflar tizimida o‘sish kuzatildi, buning asosiy sabablaridan biri AQShda joriy qilingan boj soliqlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish sohasidagi tariflar miqdori 1.9% dan 4.7% gacha 2.8% ga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablari sanoat mahsulotlariga ekologik standartlarning qo‘yilishi va proteksionizm siyosatini qo‘llash maqsadida tatiflarni yuqori belgilanishi hisoblanadi.

O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi jadvalni shakllantiramiz:

1-jadval

Yashil choralar natijasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar[3]

Tahlil qilinayotgan makroiqtisodiy o‘zgaruvchilar	**Boshlang‘ich baza darajasi**	**Joriy daraja (2025-2026-yilla)**	**Mutlaq o‘zgarish**
Global sanoat boj yuklamasi	1.9%	4.7%	+2.8%
Global iqlimiy soliq yig‘imlari(milliard AQSh dollar)	$30	$107	+$77
Global emissiya qamrovi	7%	30%	+23%
Rivojlanayotgan mamlakatlarning YIga eksport hajmi	100%	88.6%	-11.4%
AQSh bozorida xorijiy yashil import ulushi	100%	91.5%	-8.5%

Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turibdiki iqlim siyosati natijasida, ya’ni mahsulotlarga soliq va bojlar qo‘llanishi natijasida Yevropa Itifoqi va AQSh davlatlarining import hajmi pasaygan. Yuqori soliqlar natijasida AQSh yashil mahsulotlar importining 8.5% ini yo‘qotmoqda. Import qiluvchi davlatlar boj soliqlari to‘lashdan ko‘ra, o‘z mahsulotini boshqa davlatlarga import qilishni afzal ko‘rishmoqda.

Xulosa

Tadqiqot davomida aniqlangan ko‘rsatkichlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, yashil protiksionizm iqlim barqarorligini ta’minlashdan ko‘ra, rivojlangan davlatlar uchun ichki bozorlarini tashqi mahsulotlardan himoya qilish quroliga aylanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar yuqori soliq tushumlari orqali boyib borayotgan bir paytda, rivojlanayotgan mamlakatlarning export xarajatlari oshib ketishi natijasida mahsulotlari raqobatbardoshligi pasayishi xavfi ostida qolmoqda. Texnalogik jihatdan qoloq davlatlar tayyor mahsulotlardan ko‘ra ko‘proq xomashyo exkportyoriga aylanib bormoqda.

AQSh, YI va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro jazo tariflari noyob mahsulotlar ta’minot zanjirining uzilishiga olib kelmoqda. Natijada davlatlar ta’minot xavfsizligiga ham e’tibor qaratishmoqda va bu xomashyo narxining oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuzaga kelayotgan muammolarning oldini olish uchun bir nechta tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, mamlakatlarda eksport uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning uglerod sig‘imoni o‘lchaydigan tizim va uni xalqaro standartlarga mosligini tekshiradigan audit tizim yaratish lozim. Bu orqali eksport qiluvchi davlatlar o‘z mahsulotlarini standartlarga moslashtirish orqali soliq to‘lovlarini kamaytirishi mumkin.

[3] Tahlillar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Ikkinchidan, yuqori ekologik to‘siqlar qo‘yuvchi mamlaktlarga eksport hajmini cheklab, yashil soliqlar joriy etmagan mamlakatlarga eksport qilish choralarini ko‘rish lozim.

Uchinchidan, Butunjahon Savdo Tashkiloti tomonidan qat’iy belgilangan me’yorlar joriy etilishi lozim. Bu rivojlangan mamlaktlari yuqori soliqlar belgilashining oldini olishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. William Nordhaus. The Climate Casino Risk, Uncertainty, and Economics for a Warming World. New haven&London. 2013
2. Dani Rodrik. The Globalization Paradox: Democracy and the Future of the World Economy. New York and London: W.W. Norton; 2011.
3. General Agreement on Tariffs and Trade (GATT 1947). https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/gatt47_e.htm#articleVII
4. The Paris agreement. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC). https://unfccc.int/sites/default/files/resource/parisagreement_publication.pdf
5. State and Trends of Carbon Pricing 2026. https://www.worldbank.org/en/publication/state-and-trends-of-carbon-pricing
6. Global Trade Outlook and Statistics. World Trade Organization.2026
7. Global Trade Update(January2026): Top trends redefining global trade in 2026.UN trade&development
8. WTO Tariff and Trade data. https://ttd.wto.org/en/data/idb
9. 10 trends shaping global trade in 2026. UN trade&development. https://unctad.org/news/10-trends-shaping-global-trade-2026
10. M. Maliszewska, C. Fischer, E. Jung and M. Chepeliev. Carbon Border Adjustment Mechanism (CBAM) Exposure Indices Methodological Note. 2025 https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/2f8941c6-ab6a-48bc-8cfe-17d72780eae7/content